

USMON AZIM IJODIDA ISTIORA

Mahliyo Turg'unova

University of Business and Science,

Til va adabiyot ta'limi kafedrası

stajyor-o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

She'riyatda badiiy ifoda usullari muayyan shakliy va mazmuniy san'atlarni hosil qiladi. Ular lirikaning adabiy-estetik xususiyatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Atoqli shoir Usmon Azim she'riyatida qo'llangan she'riy shakllar ayrichaligi bilan ajralib turadi. Xususan, istiora san'ati o'ziga xos uslubda namoyon bo'ladi. Shoir ijodida istioralar she'riy asarlar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qilgan. Istioralar shoirning hayotiy voqea-hodisalarga, insoniy munosabatlarga ijodiy yondashuviga bog'liq holda hosil bo'lgan.

Istioralar poetik matnlarda obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vosita bo'lib, ular Usmon Azimning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida o'ziga xos uslubini belgilab beradi.

Ushbu maqolada Usmon Azimning badiiy obraz yaratish mahorati uning she'rlari misolida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: gul, chorbog', tulki, obraz, o'xshatish, yulduz, sevimli yor, kuz, yor jamoli, ishq kuyi, ko'ngil.

ABSTRACT

In poetry, artistic modes of expression form specific stylistic and semantic devices that play an important role in enhancing the literary and aesthetic qualities of lyric works. The poetic forms employed in the works of the distinguished poet Usmon Azim stand out for their distinctiveness. In particular, the art of metaphor manifests itself in a unique and individualized style. In the poet's creative works, metaphors serve to ensure the distinctiveness of poetic language, emerging from his creative interpretation of life events and human relationships.

Metaphors, as linguopoetic means that create imagery in poetic texts, define the poet's individual style as a product of Usmon Azim's artistic and aesthetic thinking. This article substantiates the poet's mastery in creating artistic imagery, illustrated through examples from his poetry.

Keywords: flower, garden, fox, image, simile, star, beloved, autumn, beauty of the beloved, song of love, soul.

АННОТАЦИЯ

В поэзии художественные способы выражения формируют определённые стилистические и смысловые приёмы, играющие важную роль в повышении литературно-эстетических качеств лирики. Поэтические формы, использованные выдающимся поэтом Усмоном Азимом, отличаются своей самобытностью. В частности, искусство метафоры проявляется в его творчестве в особом, индивидуальном стиле. В поэтических произведениях поэта метафоры служат средством обеспечения своеобразия языка, отражая его творческое отношение к жизненным явлениям и человеческим взаимоотношениям.

Метафоры, являясь лингвопоэтическим средством создания образности в поэтических текстах, определяют индивидуальный стиль поэта как результат художественно-эстетического мышления Усмона Азима. В статье обосновано мастерство поэта в создании художественного образа на примере его стихотворений.

Ключевые слова: *цветок, сад, лиса, образ, сравнение, звезда, возлюбленная, осень, лик возлюбленной, песнь любви, душа.*

KIRISH

Istiora narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishidir. Ma'no ko'chishining bu turi adabiyotshunoslikda istiora deb yuritiladi. Avvalo, istiora nutq jarayonida hosil bo'ladi. Uning shakllanishi to'g'ridan to'g'ri insonning fikrlash doirasi, tafakkur qamrovi bilan bog'liq. Inson faoliyati juda serqirra bo'lib, u tabiat va jamiyatda bo'layotgan har bir o'zgarishni kuzatib boradi, voqea-hodisalarga, narsalar va shaxslar haqidagi bilimlarini tinimsiz ravishda boyitib boradi, ular haqidagi fikr va tasavvurlarini ma'lum bir obrazlar sifatida ongida muhrlaydi. Bu falsafiy xulosalar o'rni kelganda ko'chma ma'no kasb etib nutqqa ko'chadi. Tilshunos M.Yo'ldoshev istiora va o'xshatish orasida quyidagi farqlar mavjudligini ko'rsatadi:

1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Istiorada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi.

2. O'xshatishda ikki komponent – o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Istiora esa bir komponentli bo'ladi.

3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p:

bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Istioralar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi.

4. O‘xshatishda maxsus ko‘rsatkichlar bo‘ladi: -dek, -day, -simon, -larcha, kabi, -singari, -o‘xshamoq va boshqalar. Istioralarda bunday ko‘rsatkichlar bo‘lmaydi.

Buni quyidagi misoldan ham ko‘rish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. O‘xshatish konstruksiya. Bunda Karim-o‘xshatish subyekti, tulki o‘xshatish etaloni, ayyor-o‘xshatish asosi, -day-o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi. Bu to‘liq o‘xshatish. Karim tulki. Bu qisqargan o‘xshatish, chunki gapda o‘xshatish asosi (qaysi xususiyati o‘xshashligi) va ko‘rsatkichi ifodalanmagan. Voy, tulki-yey... (Karimga nisbatan ishlatilmoqda). Bu istiora hisoblanadi. Chunki Karimning ayyorligi obrazli tarzda ifodalanayapti. Butunlay qayta nomlanyapdi”[Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. 2007,78].

Usmon Azim she‘riyatida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari orasida istioralar muhim o‘rin tutadi. Quyidagi misolda so‘zlovchi o‘z sevgilisiga bo‘lgan eng nozik his-tuyg‘ularini ifodalashda badiiy adabiyotdagi eng ko‘p qo‘llaniluvchi an‘anaviy usullardan biri - istioralardan foydalangan. So‘zlovchi o‘z sevgilisiga nomini aytib murojaat qilmay, unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Gulim” deb murojaat qiladi:

Gulim, sovuq boqma, qo‘rqaman,
Qo‘rqaman boz bo‘ladi paydo –
Olti qit’a, to‘rt bahri ulkan,
Huvillagan dahshatli fazo[Azim U. Saylanma. 2015,73].
Agar tasodif bo‘lib,
Anov shofyorning qo‘li,
Ozgina qaltirasa,
Olamda yo‘qman, gulim...[Azim U. Saylanma. 2015,73].

Yoki

Men nechun yongan dilimni so‘ndirolmayman, gulim,
Kul bo‘lishga qismatimni ko‘ndirolmayman, gulim.
Kim bilur otashda yongan kunlarimning qadrini,
Kecha qalblarni nurimga to‘ldirolmayman,gulim.
[Azim U. Saylanma2015,73 “Qo‘sh eshitgan o‘lan”].

Gul istiorasi shoir ijodida faolligi bilan ajralib turadi. Bu istiora she‘rdan she‘rga ko‘chib, poetik obrazlilik, ta’sirchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi:

Shamollarga dardini,
Kulib so‘ylagan, ey, gul,
Mening sovuq bag‘rimga,
Qadam qo‘ymagan, ey, gul

Bir tosh bo‘lib yoningda o‘tganimga baxtliman! [Azim U. Saylanma 2015,73 “Qo‘sh eshitgan o‘lan”].

Istiora (arabchadan “qarzga olish”) yoki metafora (yunonchadan “ko‘chirish”) - asarlarda so‘zni o‘z ma‘nosidan boshqa bir ma‘noda, ya‘ni majoziy ma‘noda qo‘llash san‘ati. Bu san‘at so‘z ma‘nolari ko‘chishining bir turi bo‘lib, u narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Shu jihatdan istiora tashbih san‘atiga yaqin turadi. U ko‘pincha tashbihi kinoyaga, ya‘ni mushabbihi tushirilgan tashbihga teng keladi. Adabiyotshunoslikda istiora tashbihdan kuchli sanaladi. Istiora -badiiy tasvir vositasi, ko‘chim. Istiora 2 narsa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. U o‘xshatilgan va o‘xshagan unsurlardangina tashkil topadi. Masalan, sarv qomat, ohu ko‘z. Istiorada sher, yo‘lbars va boshqa kuchli, jasoratli hayvonlarga xos ayrim xususiyatlar, oq, qora sifatlaridagi yaxshilik, yomonlik ma‘nolari insonlarning ayrim hislatlarini ta‘kidlab ko‘rsatish uchun ko‘chiriladi (sher yurak, oq ko‘ngil, qora qalb va hokazo).

Istiora badiiy asarlarda aks etayotgan narsa, voqea, hodisalarning aniq, ravshan gavdalanib turishida, obrazlar tavsiflarining yorqin berilishida, asar joziba kuchining oshishida nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Istioraning 2 turi mavjud: 1) ochiq istiora. Masalan, “Mening qo‘lim yetmagan yulduz”, “Tushlarimda seni ko‘rgayman” (Abdulla Oripov). Bunda sevimli yor, ma‘shuqa - “yulduzga” o‘xshatilgan. O‘xshagan tushirib qoldirilgan o‘rniga o‘xshatilgani berilgan; 2) yopiq istiora. Masalan, “Qolgan so‘zlar tutqizmadi o‘z baridan” (G‘.G‘ulom). Bunda “so‘zlar” odamga o‘xshatilgan. O‘xshatilgan tushirib qoldirilgan va o‘xshagan berilgan.

Misollar: Alisher Navoiyning “Furqatingdin za‘faron uzra to‘karmen lolalar, Lolalar ermashki, bag‘rimdin erur pargolalar” baytidagi “sariq yuz” ma‘nosidagi “za‘faron” so‘zi sodda istioraga, “qonu yosh to‘kaman” ma‘nosidagi “to‘karmen lolalar” iborasi murakkab istioraga misol bo‘la oladi. Yana boshqa misollar:

Keldi ochilur chog‘i o‘zliging namoyon qil,
Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil. (Hamza)
Sheryurakli bu Lochin
Qoqib qanot-qulochin,
Quzg‘unlardan asradi
Elning xotin-xalajin.
(Maqsud Shayxzoda “Kapitan Gastello”)

Bunda Lochin-kapitan Gastello, quzg‘unlar -fashistlar ma‘nosida ishlatilgan.

Ko‘ni so‘z irig ul kim aytmish, deg‘mish,

Angar to‘pqu idtim, tikan chog‘lamish.

(Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”)

(Ma‘nosi: Kim aytsa, desa ham to‘g‘ri so‘z dag‘aldir, (ya‘ni keskin)

Unga ipak gazmol yubordim, u esa tikan tugib yubordi)

Bu yerdagi ipak gazmol -taklif, tikan- rad etishdir[Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. 2018.270.]

ASOSIY QISM

Adabiyotshunoslikda eng ko‘p murojaat qilinadigan tasvir vositalaridan biri istiora hisoblanadi. Yuqoridagi misollardan ham anglashiladiki, bu usulda muallif narsa yoki tushunchalar o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligiga asoslanib, bir narsaga xos belgi-xususiyatlarni boshqa bir narsaga ko‘chiradi va shu tariqa nom ko‘chish hodisasini yuzaga keltiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda ishtirok etgan “gulim” so‘zining ma‘nosini metaforik ma‘no deyish mumkin. Chunki mazkur misolda istiora gul va beg‘uborligi odamning tashqi jihatdan o‘xshashligi, go‘zalligi, asosida hosil bo‘lgan. Lekin shuni ham qayd etish kerakki, gul so‘zining yuqorida keltirilgan ma‘nosi adabiy tilimizda doimiy istioraga aylanib ulgurmagan. Shunga ko‘ra, yuqoridagi misolda keltirilgan gul istiorasi mazkur matndan tashqarida olib qaralganda nutqning ifodaliligi nuqtayi nazaridan ma‘lum bir uslubiy qimmat kasb etmaydi. Ko‘rinadiki, istiora sifatida tanlangan til birligining bu hodisa mohiyatiga qanchalik mos kelishi, qanchalik yangi ekanligi, poetik ta‘sirchanligi, matnning mazmunan boyligi, ifodali bo‘lishini ta‘minlaydi. Barcha so‘z san‘atkorlari, ijodkorlar qatori Usmon Azim ham o‘z she‘rlarida tilimizdagi poetik ta‘sirchan, obrazli so‘zlarni metaforik ma‘noda qo‘llash orqali she‘riy asarlari tilining shirali, ifodali, obrazli va go‘zal bo‘lishiga muvaffaq bo‘lgan:

Qancha shirin damdan kechmog‘im mumkin,

Faqat sen o‘ynagin, quvongin, kulgin.

Sen mening taqdirim, oxir azalim,

Sen mening bahorim, oyim, g‘azalim

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, istioralar shoirlarning o‘z fikrlarini kitobxonga ta‘sir qiladigan darajada obrazli qilib ifodalash vositasi sifatida she‘riy asarlarning hamma ko‘rinishlarida u yoki bu tarzda namoyon bo‘ladi. Poetik matnlarda yozuvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga bog‘liq holda she‘rda tasvirlangan mavzuning qanday ekanligiga qarab badiiy vositalar muhim uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi. Bunday vositalar uslubiyatga oid ishlarda ifoda-tasvir vositalari, badiiy matnning o‘ziga xosligini ta‘minlovchi, bo‘yoqdorlikni yuzaga keltiruvchi estetik hodisa sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Agar matnda badiiy

vosita o‘rinli qo‘llanilsa, asarda muallif tomonidan tanlangan obraz badiiy bo‘yoqlarda o‘quvchi yoki tinglovchi ko‘z o‘ngida aks etadi. Badiiy matnda qo‘llanilgan istioralar o‘z ta’sirchanlik xususiyati bilan o‘quvchining his tuyg‘ulariga ta’sir etadi, uni zavqlantiradi, turli ruhiy holatlarga soladi. Bundan tashqari, istioralar kishiga o‘z fikrlarini tilda mavjud bo‘lgan vositalar yordamida uzundan-uzun jumlar orqali ifodalashdan qutqaradi. Istioralar yordamida yozuvchining fikrlari qisqa va aniq, sodda va obrazli tarzda o‘z ifodasini topadi. Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan istioralar birgina shoirning ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlari pardozi sifatida ko‘rinmay, ijodkorning ruhiyati, ichki kechinmalari va his-tuyg‘ularining obrazlilik bilan yaxlit holda o‘quvchiga yetkaziladi. Ma’lumki, badiiy matnlarda shoir tomonidan muomalaga kiritilgan ma’noning tabiat va jamiyatdagi ma’lum bir o‘xshashlik asosida ko‘chishi istioraning asosiy, muhim belgilaridan hisoblanadi. Og‘zaki va yozma nutqda, ayniqsa, inson ruhiyati, kechinmalari tasviriga asoslangan poetik matnlarda emotsional-ekspressiv munosabat ifodalashning eng qulay vositasi bo‘lgan istioralar obrazlilikka asoslanadi. Quyidagi misolga e’tibor qilaylik:

Qancha shirin damdan kechmog‘im mumkin,

Faqat sen o‘ynagin, quvongin, kulgin.

Sen mening taqdirim, oxir azalim,

Sen mening bahorim, oyim, g‘azalim [Azim Usmon. Saylanma.2015,64]

Bo‘yoqdorlik va ta’sirchanlik asosida metaforik ma’no hosil qilish badiiy matnlarda qo‘llanuvchi lingvopoetik vositalarga xos xususiyat hisoblanadi. Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan istioralarda shoirning salbiy yo ijobiy munosabatda bo‘lishi shoirning she’rda kimga qarata murojaat qilayotganligi, uni qanday baholashi, qanday birliklar vositasida unga munosabat bildirishiga bog‘liq bo‘ladi. Shoir quyidagi she’rida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan istiorani qo‘llagan:

Endi mendan ketdi ixtiyor!

Yuragimni qo‘yib kaftimga.

Shivirlayman besabr, takror:

Qiblanamom, yo‘l ko‘rsat menga! [Azim U. Saylanma. 2015, 86].

Mana bu parchada esa u yorga nisbatan to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilinmaydi, balki unga nisbatan kutilmagan istiora qo‘llaniladi:

Xavotir ichinda deding: “Men ketdim...”

To‘xtading.

Xo‘rsinding.

Jo‘nading shitob.

Kuzgi chorbog‘ aro yo‘qolding, yetding,

Atlas liboslarga belangan sarob [Azim Usmon. Saylanma. 2015, 86.]

Istioralarning o‘ziga xos xususiyatlari badiiy matn doirasida qaraluvchi she’riy asarlarda bo‘rtib turadi. Shuning uchun Usmon Azim ijodida qo‘llanilgan istioralarning o‘ziga xos jihatlarini aniqlashda ularning shoir she’riyatida tutgan o‘rniga alohida e’tibor qaratish lozim. She’riy matnlarda Usmon Azim boshqa tasvir vositalari qatori istioralarni qanday maqsadda qo‘llashiga qarab bu vositaning bajaradigan vazifasi va badiiy estetik qimmatini belgilash mumkin. Uning she’rlarida istiora o‘zi bog‘liq bo‘lgan matnda yetakchilik qiladi. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki: Usmon Azim ijodida tilning boshqa ifoda-tasvir vositalari qatori istioraning o‘ziga xos estetik vazifasi boshqa matnlarga nisbatan yaqqol namoyon bo‘ladi. Usmon Azim tomonidan tanlangan va she’riy asarlar tilida mahorat bilan qo‘llanilgan istiora she’rlarda aniqlik va ta’sirchanlik, jozibadorlik va ohangdorlik kabi xususiyatlarini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijodkor tomonidan sevimli yorga nisbatan qo‘llanilgan istioralar shoir she’riyati bilan tanishgan kitobxonni turli ichki kechinmalarga, ruhiy holatlarga soladi, o‘quvchini shoirning xayolot olami tomon yetaklaydi, uning estetik tafakkuri qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi. Shoir she’rlarida qo‘llanilgan lingvopoetik vositalar bilan tanishgan kitobxon istioralarni anglash jarayonida ulardan ta’sirlanadi hamda Usmon Azim she’riy asarlari quvvatini his etadi. Shoirning o‘ziga xos uslubi shundan dalolat beradiki, u o‘z qahramoni ichki kechinmalarini anglagan, uning g‘am-qayg‘ulariga sherik bo‘lgan holda hayotiy voqea-hodisalarga obrazlilik nuqtayi nazaridan yondashadi va shunga xos istioralarni tanlaydi. Quyida u yoriga nisbatan “she’rim” istiorasini qo‘llaydi:

Ammo, sen kelmassan, yo‘qotgan she’rim,

Hamon turibdirsan ostonada tik.

Kutasan: “Qaytgin”, deb aytadi ering,

Yana ochiladi yopilgan eshik [Azim Usmon. Saylanma. 2015, 87.]

Boshqa bir o‘rinda esa unga “Panohim” deb murojaat qiladi:

Panohim, uchyapmiz yulduzlar aro,

Yulduzlar ichida eng go‘zali- siz! [Azim Usmon. Saylanma. 2015, 113]

Tilimiz so‘z va iboralarga, turli xil vositalarga qay darajada boy bo‘lmasin, kishilar fikrlarini har doim ham ko‘zlanganidek ifodalay olmaydilar. Lug‘at tarkibidagi ma’lumot, xabar yetkazishga xizmat qiluvchi vositalar, leksik birliklar kishiga o‘z subyektiv-emotsional munosabatini o‘z istagi darajasida aniq va ta’sirchan, yorqin, obrazli qilib ifodalashga, baholashga har doim ham imkon bermaydi. Bu esa ijodkorga tilimiz lug‘at tarkibidan joy olgan o‘z kommunikativ maqsadiga mos keluvchi so‘z va iboralarni metaforik qo‘llashga zamin hozirlaydi. Mana uning bir she’rda ayolga nisbatan qo‘llagan istioralari:

Behisht gulshanlari topdilar zavol,

Qiyomat gullarni ayladi g'orat.

Sen, ey, farishtalar hamdami - ayol,

Do'zaxda qolganing bo'lsin muborak!

Do'stlaring bor edi - payg'ambar, rasul -

Har biri o'zicha yaratgan olam.

Ey, podshoh qismatga sadoqatli qul,

Qutlug' bo'lsin yangi shayton do'stlar ham.

Uni-ku gapirmay... O'tdi u - ertak,

O'tli hislarini poyingga yozdi.

Sen, ey, olovlarda muzlagan erka,

Muzda uyg'onishning lazzati sozmi? [Azim Usmon. Saylanma. 2015,152.]

Mana bu she'rda esa istiora (oppoq qo'lcha) va jonlantirishning o'zaro uyg'unlik hosil qilganligi seziladi:

Men ko'cha kezaman.

Yog'a boshlar qor,

Oppoq qo'lchalarni yelkamga tashlab.

Sokin shivirlaydi: "Nima gaping bor?" –

Qadamim tovshidan uyg'ongan uylar [Azim Usmon. Saylanma. 2015, 178].

Shoirning "Ilk she'rning yozilishi haqida ballada" she'rida qo'llanilgan ko'chim insonning tafakkuri, xayolotida mavjud bo'lgan o'ziga xos olamni, undagi obrazlarni qamrab oladi:

Osmon bilan o'ynashmang - qo'rqing,

Ko'z yosh to'kmang, ishqdan urmang lof.

Hali-zamon qudratli qo'shin

– Qo'zg'oladi butun Ko'hi Qof... [Azim Usmon. Saylanma. 2015,152.]

Ta'kidlash kerakki, Usmon Azim she'rlarida boshqa shoirlar ijodida uchramaydigan ko'chimlarni ko'plab uchratish mumkin. Ular o'zlarining poetik ta'sirchanligi, o'quvchi ruhiyatiga ta'sir etib turli his-tuyg'ularni uyg'ota olishi bilan boshqa vositalardan farqlanib turadi.

XULOSA

Xulosa qilish mumkinki, istioralar Usmon Azim she'riyatida faol qo'llanilib, she'riy asarlar tilining o'ziga xosligini ta'minlashga xizmat qiladi hamda shoirning hayotiy voqea-hodisalarga, insoniy munosabatlarga ijodiy yondashuviga bog'liq holda hosil bo'ladi. Istioralar poetik matnlarda obrazlilik hosil qiluvchi lingvopoetik vosita sifatida Usmon Azimning badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida uning o'ziga xos individual uslubini belgilab beradi. Ular she'riy matnlarda kutilmagan obrazlilik hosil qiladi, Usmon Azimning fikr ifodalashida ancha qulaylik yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. MADALIYEVA, Z. (2021). WILLIAM FIERMANS SCIENTIFIC VIEWS ON TWENTIETH-CENTURY UZBEK LITERATURE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 1335-1338.
2. Ermanbetova, S. (2024). POETIC SYNTAX IN THE POETRY OF HABIB SADULLA. *Академические исследования в современной науке*, 3(40), 190-194.
3. Эрманбетова, Ш. Б. (2024). ҲАБИБ САЪДУЛЛА ШЕЪРИЯТИДА ПОЭТИК СИНТАКСИС. *GOLDEN BRAIN*, 2(16), 19-25.
4. Iskandarova, M., & Usmonov, X. (2024). CLINICAL-DIAGNOSTIC FEATURES AND COMPLEXITY OF TREATMENT IN THE COMORBID COURSE OF PULMONARY TUBERCULOSIS AND MALIGNANT TUMORS. *Академические исследования в современной науке*, 3(33), 55-57.
5. Ermanbetova, S. B. (2020). WHEN I CAME OUT OF THE STREET. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(10), 314-318.
6. Turakulova, U. (2025). ASPECTS OF TEACHING GRAMMAR TO ELEMENTARY AND INTERMEDIATE LEVEL STUDENTS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1216-1219.
7. Xabibillayev, N. (2024). KEYINGI DAVRDA O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI SO ‘Z TARKIBI BO ‘YICHA QILINGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI. *Наука и инновация*, 2(22), 73-77.
8. Nosirjon o’gli, N. K. (2024). TRADITIONAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF MORPHEME IN UZBEK LINGUISTICS. *American Journal of Philological Sciences*, 4(10), 53-56.
9. Ogli, N. K. N. (2024). ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK WITH COMPLEX MORPHOLOGICAL COMPOSITION. In *Next Scientists Conferences* (pp. 61-63).
10. Habibullayev, N. N. O. G. L. (2023). Qozoq Va O’zbek Tilidagi Modal So’Zlar Chog’Ishtirmasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 27-33.
11. DILMUROD, A., & SHOIRA, B. (2025). FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI (“Alpomish” dostoni asosida). *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 191-199.
12. Iskandarova, S., Kuziyev, U., Ashurov, D., & Rakhmatullayeva, D. (2024, November). Advancing Natural Language Processing: Beyond Embeddings. In *2024 International Conference on IoT, Communication and Automation Technology (ICICAT)* (pp. 792-796). IEEE.

13. Ashurov, D. A. (2019). THE LINGVOCULTURAL CHARACTERICS OF COLOR COMPONENT PHRASEOLOGIES IN THE VERSION OF “ALPOMISH” EPIC. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 279-282.
14. XASHIMOVA, X. (2025). TERMINOLOGIK BAZANING YAGONA ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH ISTIQBOLLARI: TEXNIK TERMINOLOGIYANI STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 232-237.
15. Khashimova, K., & Kuziev, U. (2020). Participation of languages of other systems in the formation of the uzbek literary language. *Збірник наукових праць ЛОГОС*, 22-25.
16. Khashimova, K. D. (2021). LITERARY LANGUAGE AND SPEECH NORMS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 27-29.
17. Djurakhanovna, K. K. (2025). PSYCHOLINGUISTICS: TEXT, SPEECH, AND THE HUMAN FACTOR. *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, 1(6), 219-223.
18. Хашимова, Х., & Пазлитдинова, Н. (2024). Роль терминологии в развитии лексического строя языка. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, 2(2/S), 112-116.
19. Djuraxanovna, X. X. (2024). MUSTAQILLIK TERMINOLOGIYASINING AYRIM QIRRALARI. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(7), 67-74.
20. Mengliev, D., Nabiyeva, D., Abdurakhmonov, A., Makhmudov, K., Nuritdinov, A., & Otemisov, A. (2025, June). Educational Text Analysis in Uzbek: Developing an NER Algorithm for Academic and Pedagogical Content. In *2025 IEEE 26th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM)* (pp. 2100-2103). IEEE.
21. Nuritdinov, A. (2025). MATNLARNI LINGVOSTATISTIK TAHLIL QILISHDA KORPUS USULLARIDAN FOYDALANISH. *Молодые ученые*, 3(19), 93-97.
22. Nuritdinov, A. (2025). KONKORDANS–LINGVISTIK TAHLIL VOSITASI SIFATIDA. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(13), 173-178.
23. Nuritdinov, A. (2025). Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi. *МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ ТА’ЛИМИ JURNALI*, 3(5).
24. Nuritdinov, A. (2024). JADID DAVRI ADABIY MUHITIGA DOIR ASARLARDAN KORPUSDA FOYDALANISH. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).

25. Nuritdinov, A. (2022). O 'ZBEK TILI KORPUSI UCHUN ABDURAUFI FITRATNING LINGVISTIK ASARLARINI MANBA SIFATIDA OLINISHI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).
26. Nuritdinov, A. S. O. G. L. (2022). O'zbek tili milliy korpusi uchun jadid tilshunoslarining lingvistik asarlarini manba sifatida olinishi. *Science and Education*, 3(4), 2048-2057.